

# IQTISODIY MADANIYATLILIK - SHAXS TOMONIDAN IJTIMOIIY ME'YORLAR VA QADRIYATLARNING YAXLITLIK SIFATIDA IDROK ETILISHI

**Lutfullaeva Nigora**  
**Xalqaro Nordik universiteti**  
**Psixologiya va maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti, p. f.n.**

Iqtisodiy madaniyatni shakllantirishga doir mazkur komponentlardan kelib chiqqan holda pedagogika texnikumi o'quvchilarida shakllantirilishi lozim bo'lgan iqtisodiy madaniyatga doir fazilatlar majmuini ham aniqlashtirib olish lozim. Mutaxassislar tomonidan iqtisodiy madaniyatni shakllantirish quyidagi to'rt megafazilatni tarkib toptirish bilan bog'liq ekanligiga alohida etibor qaratilgan: a) iqtisodiy bilimdonlik, mushohadalilik va onglilik; b) iqtisodiy ziyraklik; v) iqtisodiy mas'uliyatlilik; g) iqtisodiy madaniyatlilik.

## **1. Iqtisodiy bilimdonlik, mushohadalilik va onglilik**

shaxsning kasbi va mutaxassisligidan qat'iy nazar, jamiyatning faol a'zosi sifatida bilishi lozim bo'lgan, mantiqan yaxlit dunyoqarashga ega bo'lishi uchun idrok eta olishi shart bo'lgan, tabiat va jamiyatning iqtisodiy kiyofasi va uning dinamikasini ko'ra olish, tushuna olish va baholay olish qobiliyatidir.

Mazkur fazilatga ega bo'lish uchun (esa), quyidagi bilimlar doirasiga ega bo'linishi lozim:

1) *iqqisodiyot* — mulkchilikning turli shakllariga asoslangan xo'jaliklardan, xo'jaliklararo, davlatlararo birlashmalar, korporatsiyalar, konsernlar, qo'shma korxonalar, moliya va bank tizimlaridan, davlatlar o'rtasidagi turli iqtisodiy munosabatlardan iborat o'ta murakkab ijtimoiy tizim;

2) *iqtisodiy qonunlar* - iqtisodiy hayotning turli tomonlari, iqtisodiy hodisa va jarayonlar o'rtasidagi doimiy ravishda barqaror, takrorlanib turadigan, sabab-oqibatli aloqalarni, ularning o'zaro ta'siri va bog'liqligini ifodalovchi munosabatlar;

3) *iqtisodiy hodisalar* - jamiyatda turli darajadagi iqtisodiy faoliyatlarni amalga oshirishda ro'y beruvchi sifat va miqdor o'zgarishlari, jarayonlar;

4) *iqtisodiy qonunlar va hodisalarni mushohada etish* - jamiyat a'zolari tomonidan o'z ehtiyojlarini qondirish, iqtisodiy manfaatlarini ro'yobga chiqarish va faoliyat nafliligini oshirish maqsadida ob'ektiv iqtisodiy qonun va hodisalarni kuzatish, o'rganish va ularga nisbatan ongli munosabatda bo'lish;

5) *barqaror iqtisodiy taraqqiyot* - puxta asoslangan iqtisodiy siyosat ta'sirida iqtisodiyotning izchil ravishda, har tomonlama mutanosib rivojlanib borishi;

6) *milliy iqtisodiyot* - barcha tarmoqlar va sohalarni, mikro va makro darajadagi iqtisodiyotlarni, funksional iqtisodiyotni, ko'plab infratuzilmalarni o'z ichiga olgan yaxlit iqtisodiyot;

7) *demografiya* - aholining o'sib borish qonuniyatlarini, uning ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy shart-sharoitlariga bog'liqligini, aholi soni, hududiy jihatdan joylashganligi va tarkibi, ularning o'zgarishi, sabab va oqibatlarini o'rganuvchi fan;

8) *ishlab chiqaruvchi kuchlar* - ishlab chiqarishning bir-biri bilan doimo rivojlanib boruvchi shaxsiy va moddiy omillari, ya'ni ishchi kuchi bilan ishlab

chiqarish vositalari majmui;

9) *ishlab chiqaruvchi kuchlarning joylashuvi* - alohida hududlarning tabiiy, ijtimoiy va iqtisodiy shart-sharoitlariga muvofiq ishlab chiqaruvchi kuchlarning taqsimlanishini tavsiflovchi holat;

10) *ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish* - mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi sifat va miqdor o'zgarishlarini, jumladan, iqtisodiy o'sish, tarkibiy o'zgarishlar, aholi turmush darajasi va farovonligining oshishi kabilarni qamrab oluvchi ko'p qirrali jarayon;

11) *ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni harakatga keltiruvchi kuchlar* - jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuchlar bo'lib, ishchi kuchi va ishlab chiqarish vositalari hisoblanadi. Unda asosiy o'rinni yuqori bilim va malakali ishchi kuchi egallaydi. Shuningdek, mavjud tabiiy resurslarning miqsoori, sifati, texnika va texnologiya bilan qurollanganlik, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish darajasi va boshqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni harakatga keltirishda muhim rol o'ynaydi;

12) *global muammolar* - joylashgan o'rni, hududi, iqtisodiy tizimi va boshqa belgilaridan qat'iy nazar, jahonning deyarli barcha mamlakatlari uchun taalluqli bo'lgan, ularga o'z ta'sirini o'tkazadigan muammolar. Bugungi kunda global muammolar qatoriga jahon moliyaviy inqirozi, ekologik tahdid, qashshoqlik va suvsizlik, terrorizm va giyohvandlik, odam savdosi kabi holatlarni kiritish mumkin;

13) *hududiy muammolar* - bu alohida hudud (mintaqa, mamlakat, mamlakat ichida - uning ma'muriy bo'linmalari va h.k.)ga xos bo'lgan, uning bir maromda rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ziddiyatlar. Masalan, mamlakatimizning har bir viloyatida uning iqtisodiy salohiyatidan to'liq foydalanish borasida o'ziga xos hududiy muammolar mavjud bo'lishi mumkin;

14) *ijtimoiy-iqtisodiy muammolar* — jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining tarkib topishi va ro'y berishi jarayonida yuzaga keluvchi turli ziddiyatli holatlar. Masalan, mamlakatda iqtisodiy inqirozning vujudga kelishi, ishlab chiqarish hajmining qisqarishi, ishsizlik darajasining o'sishi, inflyatsiyaning kuchayishi, ish haqi va aholi daromadlarining pasayishi, tashqi qarzning ortib ketishi kabilar asosiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolar sirasiga kiradi.

**2. Iqtisodiy ziyraklik** esa, egallangan bilim va malakalardan ma'naviyat me'yorlariga to'la rioya etilishi orqali foydalanishni, jumladan, millat, davlat, jamoa va shaxsiy manfaatlarning muntazam uyg'unligini e'tirof etish va rioya qilish deb baholanadi. Davlatning iqtisodiy siyosatini bilish, tushunish, uning talablariga itoat etish va uni targ'ib etishda qat'iyatli bo'lish ham iqtisodiy ziyraklikning muhim ko'rinishidir. Iqtisodiy ziyraklik - doimiy o'zgarib turuvchi ichki va tashqi iqtisodiy muhit va uning insonlar, korxonalar, mamlakatlar va butun dunyoga kuchayib boruvchi ta'sirini kuzatib, kelajakda nima qilish lozimligini oldindan ko'ra bilishdir.

Mazkur fazilatning tarkib topishi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tanqidiy baholay olishi va istiqbolini ko'ra olishiga bevosita bog'liqdir.

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tanqidiy baholash yuksak ma'naviyatli shaxsning miyaliy iqtisodiyot ravnaqidagi umumiy ijobiy holatlar ichidan mazkur ravnaqni ta'minlanishiga xavf tug'diruvchi (to'sqinlik qiluvchi) omillarni xolis ajrata olish fazilati. Ushbu fazilat mamlakatimiz sharoitida ma'muriy-buyruqbozlik

illatlarining fuqarolar tafakkurida barham topish jarayonida - umuminsoniy demokratik qadriyat sifatida o'ta qiyinchilik bilan shakllanmokda.

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning istiqbolini ko'ra olish - kengaytirilgan takror ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish munosabatlari tizimini milliy iqtisodiyot ravnaqi nuqtai nazaridan bashorat qilish bilan bog'liq faoliyat. Mamlakatimiz Prezidenti o'z xalqi mustaqilligini ta'minlab, davlat bopshig'i sifatida O'zbekiston uchun suveren taraqqiyot yo'lini tanladi, butun dunyoda umume'tirof etilgan o'zbek modelining mashhur besh tamoyilini milliy tiklanish strategiyasini yaxlit konsepsiyasi sifatida ishlab chiqdi. Bu siyosat hozirgi kunda o'zining samarasini bermoqda va shuning uchun ham xalqimiz davlatning olib borayotgan barcha sohalardagi siyosatini qatiyat bilan qo'llab-quvvatlab kelmoqda.

**3. Iqtisodiy mas'uliyatlilik** iqtisodiy onglilik va ziyraklikning mahsuli sifatida ma'lum ma'noda, shaxs ehtiyoj-lari va manfaatlarini jamiyat ehtiyojlari va manfaatlari bilan muvozanatlovchi fazilatlar majmui sifatida namoyon bo'ladi.

Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini yaxlit, ajralmas voqelik sifatida anglash va idrok etish hamda ushbu haqiqatni amalga oshirish yo'lida fidoyilik ko'rsatish nihoyatda muhim ijtimoiy-iqtisodiy mas'uliyatdir.

*Iqtisodiy masuliyatlilik* - yuksak ma'naviyatli shaxsning jamiyat, davlat oldidagi rasmiy va norasmiy javobgarliklari yig'indisidir. Bu esa, shaxsdan quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratishni talab etadi:

- yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini yaxlit, ajralmas voqelik sifatida anglash va mushohada etish;
- davlat, xususiy va boshqa mudkni qadrlash va uning daxlsizligiga rioya qilish;
- korporativ strategiya, etika va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillariga rioya qilish;
- iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muvozanatga oqilona munosabatda bo'lish;
- shaxsiy mas'uliyatlilik, intizomlilik, vijdonlilik va burchga sadoqatlilik.

**4. Iqtisodiy madaniyatlilik** - bu iqtisodiy bilim va malakalarning yuksak ma'naviyatli shaxs timsolida ijtimoiy ehtiyojga aylanishidir. Bu eng avvalo, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan, asrlar osha shakllangan iqtisodiy qadriyatlarimizdir. Jumladan, o'z vaqtida va miqdorida soliq yoki boj to'lash, olingan qarzni shartlariga rioya etib qaytarish, bironing noniga ko'z olaytirmaslik, ko'pga tegishli foydani yakka o'zlashtirmaslik va boshqalar.

Globalizatsiya muhitida shakllanayotgan yosh avlodni an'anaviy ta'lim-tarbiya vositalari va aqidalari bilan tarbiyalash, uning ma'naviyatini yuksaltkrishga o'ta mas'uliyat bilan yondashiladi. Bu esa o'z navbatida yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishda ta'lim-tarbiya jarayonlarini yoshlar dunyoqarashiga moslashtirishni, ya'ni birinchi galda, zamonaviy ta'lim-tarbiya texnologiyalari va axborot-kommunikatsiya vositalaridan o'z o'rnida va samarali foydalanishni taqozo etadi.

*Iqtisodiy madaniyatlilik* - amaldagi iqqisodiy qonunlar, qoidalar to'g'risidagi bilim va ko'nikmalarga egalik, o'zlashtirilgan bilimlar asosida mehnat va ishlab chiqarish faoliyatlarini tashkil eta olish xususiyati. Iqtisodiy madaniyatlilik tarkibiga ishlab chiqarish madaniyati, taqsimot madaniyati, ayirboshlash madaniyati, iste'mol madaniyati, boshqarish madaniyati va mehnat qilish madaniyati kabi tushunchalarni

ham kiritish mumkin. Umumiy tarzda iqtisodiy madaniyatlikni ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarning bir butun yaxlitligi sifatida ko'rish mumkin.

Iqtisodiy qadriyatlarni anglab yetish va ularga amal qilish - iqtisodiy hayot va faoliyatda iqtisodiy me'yorlar, qonunlar va qoidalarni anglash hamda amaldagi qonunchilikka asoslangan holda faoliyat yuritish. Iqtisodiy qadriyatlar -tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan iqtisodiyotning turli sohalarida namoyon bo'ladigan tushunchalar, xususiyatlar, belgilar, faoliyat turlari va xislatlarning avloddan-avlodga meros bo'lib qolgan turmush tarzi hisoblanadi.

*Mehnatsevarlik* - shaxsning muhim fazilatlaridan biri bo'lib, uning asosida o'z turmush tarzini faol mehnat bilan uyg'unlashtirish, jamiyatdagi yuksak mavqega, hayotidagi muvaffaqiyat va natijalarga mehnat orqali erishishga intilish. Mehnatsevarlik hamisha ishtiyoq bilan mehnat qilish, o'z kuchi, bilim va ko'nikmalarini mehnat jarayoniga vijdonan tatbiq etish orqali ifodalanadi.

*Tejamkorlik* - ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning barcha bosqichlari va darajalarida jamiyat a'zolari tomonidan iqtisodiy resurslar va ne'matlarni isrofgarchilikka yo'l qo'ymay, ma'lum me'yorlarga muvofiq sarflanishining ta'minlanishidir.

*Halollik*.- yuksak insoniy fazilat hisoblanib, o'z hayotining barcha jabhalarini insoniyat tomonidan e'tirof etilgan ijobiy axloqiy me'yorlar jumladan, to'g'rilik, vijdoniylik, poklik kabi tamoyillar asosida tashkil etish va ularga qat'iy amal qilish.

*Saxiylik* - insonning o'z ixtiyoridagi moddiy va ma'naviy boyliklarni jamiyat a'zolari bilan baham ko'rishi, o'zgalarga yordam berish va muruvvat ko'rsatish kabi xislatlarni namoyon etuvchi ma'naviy fazilati.

*Tadbirkorlik* - insonning daromad olish maqsadida o'z kuch va bilimlarini, ixtiyoridagi resurs va mablag'larini tavakkalchilik, tashabbuskorlik va mas'uliyat asosida ishlab chiqarish jarayoniga safarbar etib, ijtimoiy foydali faoliyat turlarini tashkil etish va boshqarish qobiliyatlari.

*Tashabbuskorlik* - insonning irodalilik, qatiyatlilik kabi xislatlarni namoyon etgan holda o'z oldiga qo'yilgan har qanday ezgu maqsadlar va g'oyalarni amalga oshirish sari intiluvchanligi.

*Yaratuvchanlik* - insonlarning o'z kuch va bilimlariga, malaka va tajribalariga, fan-texnika yangiliklariga tayangan holda ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlar va xizmatlar yaratishdan iborat faoliyatlari.

*Faoliyat naflligi* - jamiyat a'zolari mehnat va ishlab chiqarish faoliyatlarining ijtimoiy jihatdai zarurligi, uning insonlar ehtiyojini qondirishga qaratilganligi hamda foydaliligini ifodalovchi muhim iqtisodiy tushuncha.

*Faoliyat unumdorligi* - ma'lum turdagi faoliyat bilan shug'ullanuvchi insonning vaqt birligi mobaynida mahsulot yaratish yoki xizmat ko'rsatish qobiliyati bo'lib, u yaratilgan mahsulot yoki xizmatning sarflangan mehnat mikdoriga nisbati bilan belgilanadi.

*Faoliyat samaradorligi* - bu ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarining pirovard natijasi bilan unga sarflangan resurslar, mablag'lar va boshqa harajatlar o'rtasidagi nisbatda ifodalanuvchi ko'rsatkich.

*Tabiiy boyliklar va ekologiyani asrab-avaylash* - uzoq tarixiy jarayonlarda yaratilgan va ajdodlardan meros qolgan tabiiy boyliklardan jamiyat taraqqiyoti

yoʻlida maqsadga muvofiq holda tejamkorlik bilan foydalanish, tabiatning ekologik holatiga putur yetkazmaslik, uii yaxshilash chora-tadbirlarini amalga oshirish.

*Istemol madaniyati* - turli resurs va neʻmatlarni isteʻmol qilishda iqtisodiy, ijtimoiy, axloqiy va boshqa umuminsoniy jihatdan tan olingan meʻyorlarning ustuvorligini eʻtirof etish, ularga qatʻiy amal qilish.

Hozirgi davrda dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti oʻzining maʻno-mazmuni jihatidan oldingi bosqichlardan keskin farq qiladi. Bunda eng asosiy va muhim jihat – milliy iqtisodiyotlarning tobora integratsiyalashuvi va globallashuvining kuchayib borishidir. Ayni paytda bu jarayonlar xalqaro maydondagi raqobatning ham keskinlashuviga, har bir mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi oʻz mavqeini mustahkamlash uchun kurashining kuchayishiga ham taʻsir koʻrsatadi.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va roʻy berayotgan tub oʻzgarishlarning barchasi inson manfaatlarini roʻyobga chiqarish maqsadiga yoʻnaltirilganligini anglash, yoshlarning jamiyatimizdagi oʻrni va rolini chuqur his qilishi asosida talabalarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirish maqsadga muvofiq.